



FAN, TA'LIM VA AMALIYOT INTEGRATSIYASI

ISSN: 2181-1776

B. S. Siddiqov¹, Quldashev Murodjon G'aniyevich²

¹ Farg'ona davlat universiteti dotsenti, pedagogika fanlari nomzodi

² Farg'ona davlat universiteti 1-kurs magistranti

BO'LAJAK O'QITUVCHILARDA KORRUPSIYAGA QARSHI KURASH KOMPETENTLIGINT TAKOMILLASHTIRISH

Anotatsiya: Ushbu maqolada korrupsiya tushunchasining mazmuni va mohiyati, bo'lajak o'qituvchilarda korrupsiyaga qarshi kurash kompetentligini takomillashtirish bo'yicha statistik ma'lumotlar va xorijiy amaliyot tahlili haqida so'z yuritilgan.

Kalit so'zlar: korrupsiya, Ombudsman, Komplayens nazorat, korrupsiyaga qarshi kurash kompetentligi.

Bugungi kunda korrupsiya muammosiga jahoning deyarli har bir mamlakatida duch kelish mumkin. Korrupsiya so'nggi yillarda xalqaro miqyosda transmilliy jinoyat sifatida mutaxassislar tomonidan keng muhokama qilinayotgan mavzulardan biridir. Ta'kidlash lozimki, korrupsiya keltiradigan zarar barcha davlatlar uchun teng sanalib, mazkur illat davlatning turli sohalariga, xususan, bo'lajak o'qituvchilarda korrupsiyaga qarshi kurash kompetentligini takomillashtirish dolzarb pedagogik muammo sifatida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev "Yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma'naviy salohiyatga ega bo'lib, dunyo miqyosida o'z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo'sh kelmaydigan insonlar bo'lib kamol topishi, baxtli bo'lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz" deya bildirgan fikrlari davlatimizning turli sohalarida olib borilayotgan islohotlar asosida o'z tasdig'ini topmoqda.

Korrupsiyaga qarshi kurashishning ustuvor huquqiy asoslari qator xalqaro huquqiy normalarda o'z ifodasini topgan bo'lib, ularga quyidagilarni kiritish mumkin:

- 2003-yil 31-oktabrda qabul qilingan BMT ning Korrupsiyaga qarshi Konvensiyasi;

- 2000-yil 15-noyabrda qabul qilingan BMT ning Transmilliy uyushgan jinoyatchilikka qarshi Konvensiyasi;
- 1999-yil 27-yanvardagi Yevropa Kengashining “Korrupsiya uchun jinoiy javobgarlik to‘g‘risida” gi Konvensiyasi;
- 1999-yil 4- noyabrdagi “Korrupsiyaga uchun fuqarolik huquqiy javobgarlik to‘g‘risida” gi Konvensiyalari va boshqalar :

Xususan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29- iyundagi PF-6013-sonli “O‘zbekiston Respublikasida Korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘sishimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Farmoni qabul qilinib, mazkur Farmon asosida korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish sohasidagi davlat siyosatini, shuningdek, korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarning tizimli sabab va shart-sharoitlarini bartaraf etish hamda korrupsiyaga qarshi kurashish choralarining samaradorligini oshirishga qaratilgan davlat va boshqa dasturlarni shakllantirish va amalga oshirish maqsadida Korrupsiyaga qarshi kurash Agentligi tashkil etildi.

Davlatimizning korrupsiyaga qarshi qonunchiligidagi komplayens nazorat tizimi amaliyotining kirib kelishi O‘zbekiston Respublikasi 2019 yil 27-maydagi “O‘zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5729-sonli Farmonida ushbu sohada belgilangan asosiy vazifalardan biri etib, ustav jamg‘armasida davlat ulushi bo‘lgan korxona va tashkilotlarda qarshi kurashish choralarini kuchaytirish maqsadida korrupsiyaga qarshi kurashish komplayens nazorat tizimini joriy etish va uning samaradorligini tizimli monitoringini amalga oshirish vazifasi belgilandi. Ushbu normativ hujjatlari ilk bor komplayens nazorat tizimini milliy darajada joriy etish masalasi ko‘tariladi.

Shuningdek, mazkur Farmon asosida quyidagi chora-tadbirlarni bosqichma-bosqich amalga oshirish belgilanligi ahamiyatlidir, xususan:

- 2020–2021 yillarda barcha davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlarida korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tizimi (“komplayens-nazorat”) ni bosqichma-bosqich joriy etish;
- davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi faoliyati, shuningdek, ushbu sohadagi davlat va boshqa dasturlar samaradorligini monitoring qilish hamda baholash imkonini beruvchi E-Anticor.uz elektron platformasini joriy etish;
- korrupsiya holatlari haqida xabardor qilish imkonini beruvchi maxsus mobil dasturiy ta’mnotin joriy etish[1].

Yurtboshimiz Farmoni asosida O‘zbekistondagi barcha oliy ta‘lim muassalarida korrupsiyaga qarshi kurashish “Komplayens nazorat” tizimini boshqarish bo‘limi joriy qilingan ular asosiy vazifalari professor-o‘qituvchilarini nazoratga olsa, Korrupsiyaga qarshi kurashish darslari joriy qilinsa, bo‘lajak o‘qituvchilarda korupsiya tushunchasi paydo bo‘lishga xizmat qiladi. Korrupsiya xavf-xatarlari, manfaatlar to‘qnashuvini o‘z vaqtida aniqlash va chek qo‘yish, uchun tashkil etish maqsadga muvofiq.

Xorijiy amaliyot tahlili shuni ko‘rsatdiki, bozor iqtisodiyoti qonunlarga asoslangan mamlakatlarda korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida davlat va xususiy sektor ishtiroychilarining xalqaro standartlar, qonun hujjatlari va boshqa zamonaviy usullarga muvofiq samarali faoliyat yuritishini ta’minlovchi muhim vositalardan biri o‘z tarkibida

korrupsiyaga qarshi kurashish komplayens nazorat (compliance control) tizimini tashkil etish hisoblanadi.

Korrupsiyaga qarshi komplayens nazorati – davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlari, xo‘jalik yurituvchi subyektlar faoliyatini korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi xalqaro standartlar, qonun va boshqa me’yoriy huquqiy hujjatlarga muvofiq tashkil etuvchi, korrupsiya xavf-xatarlari, manfaatlar to‘qnashuvini o‘z vaqtida aniqlash va chek qo‘yish, qonun buzilishi va korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar haqida xabar berishni o‘zida mujassam etgan profilaktik tizimdir.

Qayd etish lozimki, olib borilayotgan islohotlarni amaliy hayotga tatbiq etish maqsadida 2020 yil 4 fevralda Oliy Majlisning Inson huquqlari bo‘yicha Vakili (Ombudsman) tomonidan Korrupsiyaga qarshi kurash bo‘yicha idoraviy chora-tadbirlar dasturi tasdiqlangan bo‘lib, fuqarolar va yuridik shaxslar vakillari tomonidan korrupsiya haqida xabar berish mexanizmlari joriy etilganligi ahamiyatlidir, xususan, bugungi kunda:

- Ombudsmanning “10-96” ishonch telefoni va virtual qabulxonasi faoliyat yuritmoqda;
- fuqarolar va yuridik shaxslar vakillarining korrupsiyaviy holatlar bo‘yicha hamda xodimlarning boshqa qonunga xilof ishlari to‘g‘risidagi murojaatlari tahlil qilinib boriladi, ularning natijalari odob-axloq komissiyasi yig‘ilishlarida muhokama qilinadi.
- Ombudsman Kotibiyatiga ishga birinchi marta qabul qilinayotgan shaxslar uchun korrupsiyaga qarshi kurashish maqsadida yo‘l-yo‘riqlarni tushuntirish, xizmat vazifasiga qo‘yiladigan asosiy majburiyatlar, taqiqlar, cheklovlar, talablar va idoraviy odob-axloq qoidalari mazmun-mohiyati 3 ish kunidan kechiktirmay tushuntiriladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022- yil 11- maydagi PQ-240-son qaroriga davlat boshqaruvi sohasida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni bartaraf etish mexanizmlarini takomillashtirish va ushbu sohada jamoatchilik ishtirokini kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida 1-ilovasida korrupsiyaga moyil bo‘lgan munosabatlarni bartaraf etish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi 4,5,6,7 bandlari oliy ta’lim muassasalari e‘tiborga olinishi ko‘rsatib o‘tilgan. 2-ilovasida Davlat boshqaruvi sohasida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash ishlarini tashkil etish bo‘yicha chora-tadbirlar rejasi 1-bandida Ilmiy-tadqiqot loyihalarini amalga oshirish uchun davlat buyurtmasini shakllantirishda korrupsiyaviy xavf-xatarlarni bartaraf etishga qaratilgan loyihalar tanlovini e‘lon qilish, 8-bandida Ijtimoiy so‘rovlari, ijtimoiy va boshqa tadqiqotlar asosida korrupsiyaga qarshi kurashishga oid respublika miqyosida amalga oshirilgan ishlarning natijalari va ta’sirini baholash, 9-bandida Korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash tizimini joriy etish sohasidagi ilg‘or xorijiy tajribani o‘rganish maqsadida rivojlangan mamlakatlarga o‘quv-tanishuv safarlarini tashkil etish, 10-bandida Davlat tashkilotlarida korruptsiyaga qarshi kurashish, shu jumladan, korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash bo‘yicha uslubiy qo‘llanmani tasdiqlash va davlat idoralariiga tarqatish. Shunday ekan “korrupsiya” tushunchasi Oliy ta’lim muassasalari jarayoniga fan sifatida amaliyotga tadbiq qilish lozim.

O‘zi korrupsiya nima? Korrupsiya – shaxsning o‘z mansab yoki xizmat mavqeyidan shaxsiy manfaatlarini yoxud o‘zga shaxslarning manfaatlarini ko‘zlab moddiy yoki nomoddiy nafolish maqsadida qonunga xilof ravishda foydalanishi, xuddi shuningdek, bunday nafni qonunga xilof ravishda taqdim etish;

Islohotlarning natijasi sifatida Transparency International xalqaro nohukumat tashkiloti tomonidan har yili e‘lon qilib boriladigan “Korrupsiyani qabul qilish indeksi”

da O‘zbekiston 180 ta davlat orasida 2017- yilda 157-o‘rin, 2018- yilda esa 158-o‘rinni egallagan bo‘lsa, 2019- yilda 153-o‘rinni egallagan bo‘lsa, 2020-yilda 146-o‘rinni egallagan bo‘lsa, 2021-yilda 6-pog‘ona pastlab 140-o‘rinni egalladi[1].

Bundan tashqari, Jahon odil sudlov loyihasining Huquq ustuvorligi indeksidagi “Korrupsiyadan holilik” indikatorida O‘zbekiston 2019- yilda 0,38 ball bilan 95-o‘rinni egallagan bo‘lsa, 2020- yil bo‘yicha 128 davlat orasida 0,40 ball bilan 89-o‘rinni egallab, 6 pog‘onaga ko‘tarilganligi [2] mamlakatimizda korrupsiyaga qarshi tizimli olib borilayotgan islohotlarning samarasidir. Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi direktori Akmal Burhonovning xabar berishicha, O‘zbekiston indeksda so‘nggi besh yil davomida barqaror o‘sish (2017- yilda 22 balldan 2021- yilda 28 ballgacha) qayd etib, mintaqadagi tez sur’atlarda yaxshilanib borayotgan davlatlar qatorida e’tirof etilgan.

Xorijiy davlatlar tajribasiga nazar tashlaydigan bo‘lsak, ko‘plab davlatlarda, xususan, Singapur, Buyuk Britaniya, Germaniya, va AQSH kabi rivojlangan mamlakatlarda “Davlat xizmati to‘g‘risida” gi, “Davlat xizmatida jamoatchilik nazorati to‘g‘risida” gi Qonunlar hamda davlat xizmatchilari, mansabdor shaxslar, shuningdek, sudyalarning xattiharakat me’yorlarini tartibga soluvchi “Axloq kodeks”lari mavjud ekanligini ko‘rishimiz mumkin.

E’tiborli jihat shundaki, mazkur normalar bilan davlat xizmatchilarining olishi mumkin bo‘lgan sovg‘a yoki hadyalarning aniq miqdori ham belgilab qo‘yilgan. Masalan, AQSH da ushbu miqdor 20 AQSH dollarini, Fransiyada 35 yevro, Buyuk Britaniyada 140 funt, Rossiyada 3000 rubl etib belgilangan, Kanadada esa mansabdor shaxslarning pul ko‘rinishidagi sovg‘alar qabul qilishi qat’iyan taqiqlanadi, Singapurda davlat boshqaruvida faoliyat ko‘rsatuvchi mansabdor shaxslarning gonorar, zaym, qimmatli qog‘ozlar kabi to‘lovlarni olishi ta‘qiqlangan[3].

Bundan tashqari, bugungi kunda ilg‘or xorijiy davlatlarning korrupsiyaga qarshi samarali kurash olib borish jarayonida qo‘llayotgan usullaridan biri bu davlat xizmatchilarining molmulki, daromadlari hamda katta hajmdagi xarajatlarini deklaratsiya qilishning majburiy etib belgilanganligidir. Bundan ko‘zlangan asosiy maqsad mansabdor shaxslarning noqonuniy daromad olishni oldini olish va manfaatlar to‘qnashuvini bartaraf etishdan iboratdir. Davlat xizmatida ushbu usul bugungi kunda 150 dan ortiq mamlakatda qo‘llanilmoqda

Ta’kidlash joizki, davlat xizmatchilarining mulkiy deklaratsiya tizimi korrupsiyaning oldini olish, noqonuniy boyish va manfaatlar to‘qnashuvini aniqlashning qudratli vositasidir. Jahon banki ma’lumotlariga ko‘ra, Yevropa xavfsizlik va hamkorlik tashkilotiga a’zo mamlakatlarning aksariyatida aktivlarni deklaratsiyalashning keng jamoatchilik uchun oshkora tizimi yo‘lga qo‘yilgan. Korrupsiyaga qarshi amaldagi xalqaro standartlar, jumladan, BMTning Korrupsiyaga qarshi konvensiyasi va boshqa qator huquqiy hujjatlarda davlat xizmatchilari tomonidan aktivlarning e’lon qilinishi korrupsiyaga qarshi samarali vosita ekani e’tirof etilgan.

Bu borada Daniya tajribasiga ko‘ra, 2002-yilda qabul qilingan “Korrupsiya to‘g‘risida” gi Daniya Qonuni korrupsiyaning oldini olish chora-tadbirlarining ustuvorligini belgilovchi, ta’sirchan ogohlantiruvchi xususiyatga ega bo‘lgan asosiy normativ-huquqiy hujjatdir. Xususan, ushbu qonunning qoidalari Daniya hukumati vakillarini har yili o‘z mol-mulki va shaxsiy daromadlari to‘g‘risidagi ma’lumotlarni nashr etishga, xorijiy kompaniyalarda aksiyalarga ega bo‘lishni taqiqlashga majbur qiladi, bu ularning boshqaruv faoliyatining oshkorligi va shaffofligini, korupsion holatlarini oldini olishga yordam beradi.

Korrupsiyani oldini olishning muhim omili shundaki, mamlakatda davlat xizmatchilari yuqori darajadagi ijtimoiy muhofazaga ega: ular bepul tibbiy xizmat va ta'lim olish huquqiga va ijtimoiy kafolatlarga tayanishlari mumkin, bu esa korruption harakatlar ehtimolini sezilarli darajada kamaytiradi. Bundan tashqari, Finlyandiyada Moliya vazirligi davlat xizmatchilari axloqining asosiy muvofiqlashtiruvchi organi hisoblanishi bilan xarakterlidir. Moliya vazirligi hukumat amaldorlari uchun imtiyozlar va sovg'alarini berish va olish tartibini belgilaydi, shuningdek davlat xizmatchilari daromadlarini tekshirish vakolatiga ham ega. Finlandiya milliy taftish byurosi (NAOF) esa mamlakatda korrupsiyani oldini olish maqsadida yilda ikki marotaba markaziy hukumat moliyasini tekshiradi, soliq siyosatini nazorat qiladi va siyosiy partiyalar, saylov kompaniyasini moliyalashtirish va ta'lim tizimini nazorat qiladi.

Afsuski, ijtimoiy fikr so'ralganda, korrupsiya eng ko'p tarqalgan sohalar sifatida tibbiyat va ta'limni aytishadi, bugungi kunda respublika maktablarida Xalq ta'limi vaziri Baxtiyor Saidovning aytishicha, ta'lim sohasida 504 ming nafar o'qituvchilarimiz faoliyat yuritadi. Ularning 280 ming nafardan ortig'i, ya'ni 56 foizining salohiyati talab darajasida emas. Bu degani deyarli 3 mln.ga yaqin o'quvchi-bolalarda yuqori malakali o'qituvchidan ta'lim olish imkoniyati mavjud emas. Shunday ekan, oliy ta'limdan yetishib chiqayotgan bo'lajak o'qituvchilarimizning salohiyati o'ta darajada pastligini ko'rsatadi.

Ta'lim insonning asosiy huquqi va shaxsiy, ijtimoiy va iqtisodiy rivojlanishning harakatlantiruvchi omilidir. Oliy ta'limdagi korrupsiya turli shakllarda bo'lishi va tizimning barcha sohalariga kirib borishi mumkin.

Yuqoridagi tahlillar, bo'lajak o'qituvchilarda korrupsiyaga qarshi kurashish hamda mazkur turdag'i jinoyatlarning oldini olish borasida mamlakatimizda quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish lozimligini ko'rsatmoqda:

Birinchidan, O'zbekistondagi oliy ta'lim muassasalariga bo'lajak o'qituvchilarda korrupsiyaga qarshi kurash kompetentligini takomillashtirishning ilmiy-nazariy asoslari va masalalar shakllantirish uchun korrupsiyaga qarshi kurash darslari Davlat ta'lim standartlari, malaka talablari va o'quv rejasi va dasturlariga kiritish lozim.

Ikkinchidan, xalqaro va ilg'or xorijiy davlatlarning oliy ta'lim sohalaridagi tajribasini chuqr o'rgangan holda koppusiya tushunchasi O'zbekistondagi oliy ta'lim muassasalari jarayoniga fan sifatida tatbiq qilinishi kerak.

Uchinchidan oliy, o'quv yurtlari qoshida nodavlat notijorat tashkilotlardan korrupsiyaga qarshi kurash komissiyasi tashkil qilinib amaliyotga joriy qilish kerak.

Foydalaniman adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi 2019 yil 27 maydagi "O'zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5729-sonli Farmoni <https://www.lex.uzG/docsG/-4355387>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020- yil 29- iyundagi PF-6013-sonli "O'zbekiston Respublikasida Korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" gi farmoni <https://www.lex.uzG/docsG/-4875784>
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022- yil 11- maydagi PQ-240-son qarori <https://www.lex.uzG/uzG/docsG/-6000285>

4. O‘zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurash Agentligi ma‘lumotlaridan <https://www.kun.uzG'uzG'66056438>
5. <https://daryo.uz/2022/05/04/ozbekistonda-56-foiz-oqituvchilar-salohiyati-talab-darajasida-emas-xalq-talimi-vaziri/?ysclid=l3u95ewsx1>.
6. Abdullayeva, N. A. (2022). ILMIY TADQIQOT OLIB BORISH KOMPETENTLIGI-BO ‘LAJAK O ‘QITUVCHI SHAXSINI SHAKLLANTIRISH OMILI SIFATIDA. *Academic research in educational sciences*, 3(1), 601-612.
7. Abdullayeva, N. A. (2022). The Role of Project Education in Developing Students' Restraint Skills. *International Journal of Innovative Analyses and Emerging Technology*, 2(5), 58-62.
8. Abdusalomovna, A. N. (2022). TALABALARING KASBIY KOMPONENTLIGI. *INNOVATION IN THE MODERN EDUCATION SYSTEM*, 2(18), 733-736.
9. B. S. Siddiqov, & Sh. N. Mexmonaliyev (2022). PEDAGOGIK AMALIYOTNING BO‘LAJAK O‘QITUVCHINING KASBIY TAYYORGARLIK FAOLIYATIDA TUTGAN O‘RNI. *Academic research in educational sciences*, 3 (1), 10-16. doi: 10.24412/2181-1385-2022-1-10-16
10. Ibragimovna, T. I. (2021). LEGAL AND REGULATORY FUNDAMENTALS OF REFORM OF PRESCHOOL EDUCATIONAL INSTITUTIONS IN UZBEKISTAN.
11. Karimova, M. O., & Saidullaeva, A. R. (2020). PEDAGOGICAL BASIS OF THE USE OF UNIVERSAL AND NATIONAL VALUES IN THE SPIRITUAL AND MORAL EDUCATION OF CHILDREN IN THE FAMILY. *PalArch's Journal of Archaeology of Egypt/Egyptology*, 17(7), 8547-8555.
12. Oxunova, D. (2022). O ‘QUVCHILAR BILIMINI BAHOLASHGA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR. *Academic research in educational sciences*, 3(2), 870-876.
13. Raximovna, S. A. (2022). Development of Gender Culture. *Academic Journal of Digital Economics and Stability*, 16, 88-92.
14. Siddikov, B., & Djalalov, B. (2020, December). MODERNIZATION OF EDUCATION-THE FUTURE INNOVATIVE COMPETENCE OF TEACHERS AS A MAIN FACTOR OF FORMATION. In *Конференции*.
15. Siddiqov, B. S., & Mexmonaliyev, S. N. (2022). PEDAGOGIK AMALIYOTNING BO ‘LAJAK O ‘QITUVCHINING KASBIY TAYYORGARLIK FAOLIYATIDA TUTGAN O ‘RNI. *Academic research in educational sciences*, 3(1), 10-16.
16. Tuychieva, I. (2015). The concept of pedagogical innovation in modern education. *The Advanced Science Journal*, 87-90.
17. Tuychiyeva, I. I. (2017). Question of Using Linguo-cultural Material for Learning Native Tongue in Professional Colleges. *Eastern European Scientific Journal*, (4), 84-88.
18. Urinova, N., & Abdullaeva, N. (2020). Opportunities for formulating research skills for higher education students. *Молодой ученый*, (11), 193-195.
19. Yusufovich, A. A. (2020). ISSUES OF FORMATION OF COMMUNICATIVE COMPETENCE, WHICH IS AN INTEGRAL PART OF PROFESSIONAL-

PEDAGOGICAL TRAINING OF FUTURE TEACHERS IN THE EDUCATIONAL PROCESS. *European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences* Vol, 8(7).

20. Ахмедов, А. Ю. (2020). БЎЛАЖАК ЎҚИТУВЧИЛАРДА КАСБИЙ КОМПЕТЕНТЛИКНИ ШАКЛАНТИРИШНИНГ ПЕДАГОГИК ЖИХАТЛАРИ. *Academic research in educational sciences*, (4), 778-781.
21. Ахмедов, А. Ю. (2020). ТАЛЬИМ ЖАРАЁНИДА БЎЛАЖАК ЎҚИТУВЧИЛАРНИ КАСБИЙ-ПЕДАГОГИК ТАЙЁРГАРЛИГИНИНГ АЖРАЛМАС ҚИСМИ БЎЛГАН КОММУНИКАТИВ КОМПЕТЕНТЛИЛИКНИ ШАКЛАНТИРИШ МАСАЛАЛАРИ. *ИННОВАЦИИ В ПЕДАГОГИКЕ И ПСИХОЛОГИИ*, (SI-2 № 8).
22. Ахмедов, А., Эгамбердиев, А., & Сотоволдиева, О. (2022). The role of pedagogical technologies in improving the quality of education. *Zamonaviy innovatsion tadqiqotlarning dolzARB muammolari va rivojlanish tendensiyalari: yechimlar va istiqbollar*, 1(1), 59-60.
23. Ахмедов, Б. А. (2020). Сиддиков Бахтиёр Сайдкулович, Джалалов Бахромжон Бегмурзаевич МОДЕРНИЗАЦИЯ ОБРАЗОВАНИЯ-ОСНОВНОЙ ФАКТОР В ФОРМИРОВАНИИ ИННОВАЦИОННОЙ КОМПЕТЕНЦИИ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ. *Academy*, 9, 60.
24. Ахмедов, Б. А., Сиддиков, Б. С., & Джалалов, Б. Б. (2020). МОДЕРНИЗАЦИЯ ОБРАЗОВАНИЯ-ОСНОВНОЙ ФАКТОР В ФОРМИРОВАНИИ ИННОВАЦИОННОЙ КОМПЕТЕНЦИИ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ. *Academy*, (9 (60)), 20-22.
25. Джалалов Б.Б. (2016). МЕСТО И РОЛЬ ВОЗДЕЙСТВИЯ ВОСПИТАНИЯ В ПОВЫШЕНИИ ОБЩЕСТВЕННОЙ АКТИВНОСТИ УЧАЩИХСЯ. Ученый XXI века, (5-1 (18)), 38-41.
26. Джалалов, Б. Б. (2018). РАЗВИТИЕ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ КАДРОВ В УСЛОВИЯХ ГЛОБАЛИЗАЦИИ КАК ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ ПРОБЛЕМА. In *INTERNATIONAL SCIENTIFIC REVIEW OF THE PROBLEMS AND PROSPECTS OF MODERN SCIENCE AND EDUCATION* (pp. 53-55).
27. Джалалов, Б. Б. (2019). ВАЖНЫЕ АСПЕКТЫ ФОРМИРОВАНИЯ ИННОВАЦИОННЫХ КОМПЕТЕНЦИЙ У БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ. In *EUROPEAN RESEARCH: INNOVATION IN SCIENCE, EDUCATION AND TECHNOLOGY* (pp. 43-44).
28. Джалалов, Б. Б. (2022). ВО ‘LAJAK O ‘QITUVCHILARNING INNOVATSION KOMPETENTLIGINI SHAKLLANTIRISHDA SMART-TA’LIMNING IMKONIYATLARI. УЧИТЕЛЬ, 3(4).
29. Джалалов, Б. Б., Хатамов, Х. А., & Насайдинова, Ф. У. (2016). Преимущества коллективного обучения. Ученый XXI века, 40.
30. Ибрагимова, Ш. (2022). ВО ‘LAJAK BOSHLANG ‘ICH SINF O ‘QITUVCHILARIDA METODIK KOMPETENTLIKNI SHAKLLANTIRISH-PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA. УЧИТЕЛЬ, 3(4).

31. Ибрагимова, Ш. О. (2019). РОЛЬ СЕМЬИ В ФОРМИРОВАНИИ ЦЕННОСТНЫХ ПРЕДСТАВЛЕНИЙ У МОЛОДЕЖИ О БРАКЕ И СЕМЬЕ. In EUROPEAN RESEARCH: INNOVATION IN SCIENCE, EDUCATION AND TECHNOLOGY (pp. 84-86).
32. Охунова, Д. К., & Шоюсупова, О. А. (2016). PEDAGOGICAL BASES OF HARMONIOUS EDUCATION OF STUDENTS. Учёный XXI века, (5-1 (18)), 42-45.
33. Охунова, Д. К., & Шоюсупова, О. А. (2016). ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ГАРМОНИЧНОГО ВОСПИТАНИЯ СТУДЕНТОВ. Ученый XXI века, (5-1), 45.
34. Сиддиков, Б. С., & Джалаев, Б. Б. (2016). ЗАДАЧИ РАЗВИТИЯ АКТИВНОСТИ МОЛОДЁЖИ С ПОМОЩЬЮ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ТРЕНИНГОВ. Ученый XXI века, (6-2).
35. Туйчиева И.И., & Ганиева Г.В. (2016). ХАРАКТЕРИСТИКА ПРИНЦИПОВ ПЛАНИРОВАНИЯ РАБОТЫ ПО РАЗВИТИЮ РЕЧИ. Ученый XXI века, (11 (24)), 48-53.
36. Туйчиева, И. И. (2019). ВОПРОСЫ ОБЕСПЕЧЕНИЯ АКТИВИЗАЦИИ МЫСЛITЕЛЬНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ДЕТЕЙ В ПРОЦЕССЕ ДОШКОЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ. In *PSYCHO-PEDAGOGICAL PROBLEMS OF A PERSONALITY AND SOCIAL INTERACTION* (pp. 22-25).